

43. Nurning nuqtalari orasidagi masofa

Yondosh mavzu:
yoga.



Sonli nur, koordinata,
kesma, masofa.




1. Yoga mashg'ulotlarida bolalar bir-birlaridan 150 cm masofada joylashishdi. Madina bilan Jasur bir-biridan qanday masofada joylashgan? Aziza bilan Akmal-chi?



2. Bolalar tomonidan chizilgan sonli nurni ko'rib chiqing.
Bolalarning suratlari nur boshidan necha birlik kesmaga uzoqlashgan? Ular orasida necha birlik kesma bor?




Nurdagi har bir nuqta koordinata boshidan ma'lum masofada yotadi. Nuqtalar orasidagi masofani topish uchun katta masofadan kichik masofani ayirish yoki katta koordinatadan kichik koordinatani ayirish kerak.



43. Nurning nuqtalari orasidagi masofa



3. Nuqtalarning koordinatalarini yozing. $AK, AC, KM, CK, DL, CL, BK$ kesmalarning uzunliklarini birlik kesmalarda toping. Agar $e = 3 \text{ cm}$ bo'lsa, ularni millimetrlarda ifodalang.



Namuna:

$$AB = 5e - 1e = 4e, AB = 4 * 3 \text{ cm} = 12 \text{ cm}$$



4. Sonli nurda $A(42\ 569), B(12\ 782), C(503\ 821), D(681\ 500), E(1\ 000\ 000)$ nuqtalar joylashgan.
a) BA, DE, CD, CE, BE kesmalarning uzunliklarini toping.
b) Qaysi kesma uzun: AD kesmami yoki BC kesmami? Qancha uzun?



5. Sxema bo'yicha ifoda tuzing. Uning qiymatini hisoblang. Hosil bo'lgan natija 30 000 sonidan qanchaga farq qiladi?

$$\begin{array}{ccccc} 65 & \cdot & 224 & & \\ \downarrow & & \downarrow & & \\ & - & & & \\ & + & & & 18\ 326 \end{array}$$
$$\begin{array}{ccccc} 34\ 606 & : & 22 & & \\ \downarrow & & \downarrow & & \\ & & & & \end{array}$$



6. Madina yogalar guruhiiga kelib qo'shilganida, guruhda 42 kishi shug'ullanayotgan edi. Sentabrda guruhg'a 7 kishi kelib qo'shildi va 12 kishi guruhdan ketdi. Oktabrda guruhg'a 11 kishi qo'shildi, noyabrda esa 7 kishi ketib, 9 kishi qo'shildi. Madina guruhda 50 kishi borligini ta'kidladi. Madina to'g'ri aytdimi?



7. Shart bo'yicha uchta tenglama tuzing.
a) 57 soni 19 sonidan 3 marta katta.
b) 458 soni 262 sonidan 196 taga ortiq.

43. Nurning nuqtalari orasidagi masofa



8. Ifodalang.

450 cm ni detsimetrlarda;
12300 dm ni metrlarda;
67 000 g ni kilogrammlarda;
45 500 м² ni ar larda;

42 km ni santimetrlarda;
143000 mm ni santimetrlarda;
3 200 kg ni sentnerlarda;
679 ha ni kvadrat metrlarda.



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

Bolalar yogasi – bu kuch, egiluvchanlik va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Bu alohida mashqlardan iborat bo'lib, ularni bajarish uchun gavda maxsus holatda bo'lishi kerak. Bu maxsus holat qanday ataladi?

$$(584\ 730 - 50 \cdot 5\ 840) - (173\ 254 + 118\ 746) : 400$$

- A 292 000 L 543 730 S 292 730
O 14 470 N 730 T 2 730



10. Sinfdag'i barcha o'quvchilar yoga, shaxmat va basketbol to'garaklaridan biriga qatnaydi. Ulardan 23 nafari shaxmat to'garagiga, 18 nafari yoga to'garagiga, 21 nafari esa basketbol to'garagiga yozilgan. Shaxmat va yoga bilan 10 nafar, yoga va basketbol bilan 9 nafar, shaxmat va basketbol bilan esa 12 nafar o'quvchi shug'ullanadi. 4 nafar o'quvchi biryo'la 3 ta to'garakka qatnaydi. Sinfda necha nafar o'quvchi bor?



11. Sonli nurga A(198 367), B(723 550), C(300 000), D(409 004), E(199 879) nuqtalar joylashtirilgan. Quyidagilarni toping:
a) A va C, D va E nuqtalar orasidagi masofani;
b) CD va AE kesmalar uzunligini;
d) kesmalardan qaysi biri uzun va qancha uzun:
AB kesmami yoki BD kesmami?



12. Sxema bo'yicha masala tuzing va uni yeching.

Yoga – 365 000 000 nafar

Aerobika – ?, 224 000 000 nafar kam

Ushu – ?, 20 marta ko'p

